

Date: 29th May-2025

SHARQ MUTAFFAKIRLARINING OILAVIY HAYOTGA DOIR QARASHLARI

Sh.Aripov

FarDU "Pedagogika" kafedrası o'qituvchisi

P.f.b.f.d.(PhD)

H.Q.Abdullajonov

Farg'ona davlat universiteti

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 21-20 guruh talabasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev milliy va ma'naviy qadriyatlarimizdan kelib chiqqan holda oila institutini rivojlantirish, bu sohada yillar davomida e'tibordan chetda qolib kelgan bo'shliq hamda muammolar yechimi yuzasidan tegishli davlat organlari va jamoat tashkilotlari oldiga dolzarb vazifalarni qo'yayotgani bejiz emas. Jumladan, jamiyatning betakror ijtimoiy tuzilmasi hisoblanadigan mahalla institutini aholining chinakam maslakdoshi va ko'makdoshiga aylantirish, uning roli va ahamiyatini oshirish; jamiyat va oilada sog'lom va barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhit hamda tinchlik, totuvlik va osoyishtalikni ta'minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tubdan isloh qilish kabi ustivor yo'nalishlarni o'z ichiga olgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-son Farmoni qabul qilindi.

"Pedagogika" ensiklopediyasida oila pedagogikasi – "pedagogika fanining oilada beriladigan ta'lim-tarbiyaning nazariy-amaliy asoslari bilan shug'ullanuvchi alohida tarmog'i" tarzida talqin qilingan bo'lib, oila pedagogikasi jamiyatning shaxs tarbiyasiga doir muhim davlat siyosatidagi ustivor vazifalarini bajarishiga xizmat qiladi. O'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash muammosi bolaning tug'ilgan kunidanoq boshlanadi, uning to'liq mustaqil shaxs sifatida voyaga yetgunga qadar kattalar nazoratida davom etadi.

Hozirgi davrda jamiyatdagi yangilanishlar kishilarning turmush tarzida ham o'zgarishlar yasamoqda. Hayotda nikohlarning buzilishi kabi salbiy holatlar yuz bermoqda. Bular, odatda, oila yuritishga ham moddiy, ham ma'naviy tayyor emaslik, pedagogik-psixologik savodsizlik, oila xo'jaligini yuritish malakasiga ega bo'lmaslik, yosh oilalarning ota-onaga qaram bo'lib turishi, tekinxo'rlik, ma'naviy qashshoqlik sababli paydo bo'lmoqda. Ana shu sharoitlar tufayli umumta'lim maktablaridan o'g'il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlash zaruriyati paydo bo'ldi.

Oilalarning munosabatlari, ularni jamiyatning, oilaning tamaddunidagi o'rni haqida tarixiy manbalar mavjud. Qur'oni Karim, Hadisi shariflar, shuningdek, "Avesto" kabi muqaddas manbalarda bu haqida ibratli hikmatlar mavjud. Ayniqsa, Sharq mutafakkirlari bu masalaga alohida e'tibor bilan qaraganlar. Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Abu Rayhon Beruniyning "Minerologiya", "Geodeziya",



Date: 29th May-2025

“Hindiston”, Abu Ali ibn Sinoning “Axloq fani”, “Oila xo‘jaligi”, Burhoniddin Marg‘inoniyning “Hidoya”, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” va “Mahbub ul-qulub”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Abdurauf Fitratning “Oila”, Rizouddin ibn Fahrud-din ning “Oila” asarlarini bu e‘tibor va e‘tirof yo‘lidagi sa‘y-harakatlar natijasi sifatida qarash joiz.

Oila, oilaviy munosabatlar masalasi tasavvuf falsafasida ham alohida o‘rin tutadi. Xususan, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro tariqatlarida oilaviy munosabatlar, jumladan, ota-onalar munosabatlarining farzand tarbiyasidagi ahamiyati alohida ta‘kidlab o‘tilgan. Shuningdek, oila tarbiyasiga oid qimmatli fikrlar ulug‘ mutafakkirlarimiz Imom al-Buxoriy, at-Termiziylarning asarlarida ham zikr etilgan.

Abu Rayhon Beruniy o‘zining oila pedagogikasiga oid ishlarini bevosita xalq pedagogikasi bilan bog‘langan. Jumladan, uning hikmatlarida “So‘z bilan aytganda o‘quvchiga qamchi va qiliq lozim emas”, “Omma odat qilgan narsalarga xiloflik qilma”, “Yaxshi yo‘ldan yurish yaxshilik odatidir”, “Kichkina narsani ondek hisoblama, chunki kichkina narsaning ham foydali o‘rni bor” va boshqalar. Beruniy “Hindiston” asarida ayrim afsona va hikoyalar keltirib, sevgi, muhabbat, oila, bola tarbiyasi sohasida tizimli g‘oya yaratadi. Buyuk mutafakkir “Hindiston” asarida “Hyech bir xalq oila, nikoh munosabatlaridan xoli emas”, deb yozadi va unda oila va nikoh o‘ziga xos ijtimoiy hodisa ham ekanligini isbotlashga uringan.

Abu Ali ibn Sino “Tadbir al-manozil” kitobida xotirlarning yaxshi xulqli, odobli bo‘lishi haqida gapirgan va ularga qator talablar qo‘yadi, ya‘ni, xotin kishi bilimli, aqlli, farosatli, uyatchan, sharm-hayoli, tabiatan jasur, o‘z erini qattiq sevishi, bola tug‘ishi va tarbiyalash haqida o‘ylashi, ezma, injiq bo‘lmasligi, o‘z eriga bo‘ysunishi, hyech qachon o‘z sha‘niga dog‘ tushirmasligi, er bilan ehtiyotkor, hurmatni o‘rniga qo‘yib muomala qilishi, u o‘z vazifasini va burchini yaxshi bilimi, tejamkor bo‘lishi, o‘zining xarakteri va yaxshi tomonlari bilan erining shaxsiy kamchiliklarini yo‘qota oladigan bo‘lishi zarur degan g‘oyani ilgari suradi.

Yusuf Xos Hojib o‘zining “Qutadg‘u bilig” asarida oila masalasiga ham e‘tibor berib, qanday xotin olish xususida gap ketganda ham asosiy e‘tibor uning tozaligi, ozodaligi va pokizaligiga qaratiladi, deb ta‘kidlaydi. Xotin tanlashda ayol andishali, pokiza, xulqi chiroyli bo‘lmog‘i darkor. Tanlangan xotin “Andishali, pokiza bo‘lsa (unday kishi) asl bo‘ladi”¹².

Sohibqiron Amir Temur bobomiz ham sog‘lom oila va farzand tarbiyasi masalasiga davlat ahamiyatiga molik ish deb qaragan. Amir Temur bobomizning “O‘g‘illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e‘tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko‘rdim. Kelin bo‘lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog‘liq-salomatligini, jismoniy Yoshlar ittifoqiini aniqladim. Kelin bo‘lmish nasl-nasabi, odob-axloqi sog‘lom va baquvvatligi bilan barcha



Date: 29th May-2025

qusurlardan xoli bo'lsagina el-yurtga katta to'y tamosho berib, kelin tushirdim",- degan fikrlari asrlar osha farzandlarni uylantiruvchi ota-onalar uchun hayotiy qonuniyatga aylanib qolgan.

Xullosa qilib aytganda hozirgi kunda aholi turli qatlamlarining ma'naviy va huquqiy madaniyatini oshirish dolzarb bo'lib turibdi, bu mamlakat ravnaqining yanada jadallashuviga sabab bo'ladi, turli toifadagi odamlar, xususan yoshlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar, huquqbuzarlikka moyil farzandlar yetishib chiqishiga barham beradi. Buning uchun mahallalarda mavjud barcha oilalarning ijtimoiy-ma'naviy muhitini o'rganish, har bir oila bilan mustahkam aloqa o'rnatish yaxshi samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni. <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son farmoni. <https://lex.uz>
3. Tojiboyeva X.M. Gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi immunitetni shakllantirishning pedagogik strategiyalari: Ped. fanl. d-ri (DSc) ... dis. Avtoref. – T., 2022. – 74 b.
4. Gender muammolar va rivojlanish. Gender tengligi orqali huquqlar, resurslarni olish va o'z manfaatlarini izhor qilish imkoniyatlarni rivojlantirishni rag'batlantirish / Ingliz tilidan tarjima. – M., 2002.
5. Aripov Sh.O. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning pedagogik tizimi// pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)... dis. – Farg'ona, 2023. 133 bet.

